

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA ISTITUTI  
YERDAN FOYDALANISH VA YER KDASTRI FAKULTETI  
"GEODEZIYA VA YER KADASTRI " KAFEDRASI**

***YER KADASTRI***

**1-mavzu: DAVLAT ER KADASTRINING NAZARIY ASOSLARI**

**1.3. Davlat er kadastrining turlari, tamoyillari va hujjatlari**

**Тошкент 2013.**

O`tkazilish mazmuni va tartibiga qarab davlat er kadastri asosan ikki turga bo`linadi: asosiy (birlamchi) va joriy (kundalik).

▪

## Asosiy er kadastr


Asosiy er kadastrida erdan foydalanuvchilarning umumiy maydonlari, er turlarining tarkibi, erlarning sifat holati, tuproqlarning bonitet ballari va erlarning iqtisodiy baholari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida materiallar va xujjatlar to'planadi, bir tizimga keltiriladi va tahlil qilinadi.



## Joriy er kadastri

Joriy er kadastrining vazifasi asosiy er kadastri o'tkazilgandan so'ng er maydonlaridan foydalanishda ro'y beradigan o'zgarishlarni aniqlash va ularni er kadastri xujjatlariga tushirishdan iborat.


# Er kadastrı tamoyılları



mamlakatning butun hududini to'la qamrab olish




fazoviy kordinatalarning yagona tizimini qo'llash



er kadastrıga doir axborotlar ishlab chiqish uslubiyatining birligi er kadastrıga doir axborotlarning to'g'ri bo'lishi



qonuniylik uzluksizlik



markazlashgan rahbarlik va boshqalar



Er kadastrini maqsadlari uchun foydalaniladigan plan-kartografik materiallarni tayyorlashda bugungi kunda fazoviy koordinatalarning yagona tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Negaki bunday plan-kartografik materiallar katta aniqlikka ega bo'ladilar, ulardan foydalanish er kadastrini yuqori aniqlikda o'tkazish imkonini beradi.

Axborotlar to'g'ri bo'lishi nuqtai nazardan erdan foydalanuvchilarning o'zlari ham er kadastrini to'g'ri yuritishlari katta ahamiyatga egadir. SHuning uchun har bir erdan foydalanuvchi er kadastrini yuritish bo'yicha o'zidagi zarur xujjatlarda er tarkibida ro'y bergan barcha o'zgarishlarni aniq hisobga olgan holda tuman hokimiyatiga erdan foydalanishning haqiqiy holati to'g'risida hisobot taqdim etishi zarur.

Erdan foydalanuvchilarning asosiy kadastr xujjatlari – bu barcha erlardan foydalanishni hisobga olib boradigan hamda ularda yuz beradigan o'zgarishlarni davriy ravishda tizimli tarzda yoritadigan xujjatlardir. Bunga asosan erlardan foydalanish huquqlarini beruvchi davlat dalolatnomalari, erga mulk huquqini tasdiqlovchi guvohnoma, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning er kadastr kitobi va erdan foydalanuvchilarning turli mazmundagi plan-xaritalari kiradi.



YOrdamchi er kadastri xujjatlariga asosan ishchi daftarlari, er mulkdorlari, erdan foydalanuvchilar ro'yxati, hisobotlar va ularga ilovalar, tushintirish xatlari, ocherklar, kartogrammalar, diogrammalar kiradi. Ular asosiy er kadastri xujjatlarida keltiriladigan ma'lumotlarni to'ldiradilar.